

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
TILSHUNOSLIK KAFEDRASI

Bahromova Nodira

MAVZU: Tilshunoslikda shakl va mazmun

REFERAT

ANDIJON-2014

Reja:

- 1.Shakl va mazmun birligi
- 2.Til sathlarida shakl va mazmun
- 3.Tilda shakl va mazmun nomutanosibligi

Shakl va mazmunning dialektik birligi hamda bu dialektik birlikning namoyon bo'lish tabiati masalasi har qanday fanning ham eng markaziy masalalaridandir. Voqealarning namoyon bo'lish formasi bilan mohiyati bevosita mos kelsa edi, u holda har qanday fan ham ortiqcha bo'lib qolar edi..

Zero har qanday fanning, shu jumladan, tilshunoslikning ham, bosh maqsadi hodisaning shakli va mazmuni o'rtasidagi munosabatni hamda bu munosabatning o'ziga xos qonuniyatlarini aniqlashdan iborat. Shuning uchun ham tilshunoslikda «shakliy va mazmuniy tahlilning bir-biri bilan dialektik ravishda bog'langanligi» ko'p ta'kidlanadi. Chunki U. Veynreyx to'g'ri ko'rsatganiday, ma'no va uning ifodasi o'rtasidagi qat'iy moslik faqat ideallashtirilgan semiotik belgilargagina xosdir. Tilda esa, xususan, uning sintaktik sathida gapning shakliy va mazmuniy tarkiblari o'rtasidagi aloqa behad murakkab va ko'pincha ziddiyatli bo'lib, ular bir-birlari bilan to'liq muvofiq kelmaydi, ko'pincha mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik (asimetriya) mavjud bo'ladi. Ana shunday nomuvofiqlik bo'lmasa, tilshunoslikning oldida muammoning o'zi ham bo'lmas edi. Lekin gaplarning aksariyatida ana shunday nomuvofiqlik bor. Shakl va mazmunning bunday ziddiyatli tabiati tilning o'ziga xos xususiyatidir. Muhimi shuki, til birliklarining shakli va mazmuni o'rtasidagi dialektik ziddiyat ularning uzviy birligiga to'sqinlik qilmaydigan emas, balki bu ziddiyat ana shunday birlik mavjud bo'lgandagina mumkin bo'ladi, bu tildagi qonuniy va ob'ektiv hodisadir.

Til va uning birliklari fikrni shakllantirish, ifodalash vositasi bo'lganligi sababli bizning ongimizda ular ikki tomonning — shakl va mazmun (ma'no, vazifa) tomonlarining birikmasi sifatida mavjuddir. Masalan, *[kitob]* lug'aviy birligi ongimizda moddiy tomondan [k], [i]), [t], [o], [b] kabi fonemalar tizmasidan iborat. Bu fonemalar tizmasi [daftar], [oynoma], [ro'znoma] va h. k. kabi lug'aviy birliklar bilan o'xshashlik munosabatlariga ega. [o'qi-], [yoz] kabi lug'aviy birliklar bilan, [-gaz], [-lar], [-im va h. q], [-ni], [ning] va h. q morfemalari bilan esa qo'shnichilik munosabatlariga kirisha oladigan ma'no bilan bog'langandir. Bu ma'no ongimizdagi «kitob» tushunchasi bilan, tushuncha esa hayotdagi, voqelikdagi (kitob) predmet bilan bog'liqdir.

Sistem tilshunoslikda bularning har birining o'z nomi bor:

Moddiy tomon — *substansiya, ifodalovchi, shakl, moddiy tomon, tashqi tomon, signal, nomema* atamaları bilan;

Ma'no tomoni — *ma'no, mazmun, ichki tomon, ifodalanmish, signifikat, funksiya, vazifa, qiymat, semema* atamaları bilan ataladi.

Ob'ektiv borliqda (voqelikda) atab kelinayotgan predmet, narsa, buyum, belgi, xususiyat, harakat — holat, munosabat, miqdor va h. k. *denotat* (atalmish), *designat* atamaları bilan nomlanadi.

Shakl va mazmun haqidagi tasavvurlarning birikishi til birliklarining, jumladan, lug'aviy birliklarning tuzilish xususiyatlari ichida eng asosiysi hisoblanadi. Shakl va mazmun orasidagi bog'lanish tabiiy va shartli (ijtimoiy) bo'ladi. Masalan, odamning rangi so'lg'in, harakat va aks harakat kuchi pasaygan ko'rinishda (shaklida) bo'lsa, bu — uning betobligidan, zaifligidan xabar beradi. Shakl va mazmun orasidagi bunday bog'lanish tabiiy bog'lanishdir. Ayni vaqtda ushbu (a) harfini «a» sifatida talaffuz etish, bu belgini (+)qo'shish alomati, buni (:) bo'lish alomati, quyidagi raqamlarni (1, 2, 3, 21) bir, ikki, uch, yigirma bir deb tushunish jarayonidagi shakl va mazmun bog'lanishi esa ijtimoiy (shartli) bog'lanishdir. Ushbu bog'lanishlar jamiyat tomonidan shu holatda qabul qilingan. Binobarin, jamiyat a'zolari ayni bog'lanishlarni jamiyatdan tayyor holda oladi, o'rganadi. Ularni qanday holda olgan bo'lsalar, shunday holda ishlatadi, aks holda jamiyat uni qabul qilmaydi va unga tushunmaydi. Demak, shakl va mazmun orasidagi bog'lanishda — shakl va mazmun orasida hech qanday tabiiy bog'lanish yo'q.

Shunga ko'ra ijtimoiy bog'lanishlarni — shakl va mazmun munosabatlarini jamiyat qulayligini ko'zlab, o'zgartirish mumkin.

Bundan yuz yil avval ham qayd etilgan o'sha mazmun [m], [u], {s}, [t], [a], [f], [o] fonemalar tizmasi bilan bog'langan edi. Hozir ham xuddi shunday. Demak, tilda shakl va mazmun aloqalarida o'zgarish bo'lgani yo'q. O'zgarish tildagi shaklni, moddiy tomonni yozma nutqda berish usulida sodir bo'ldi. Jamiyat muayyan maqsadlarni ko'zlab, ushbu o'zgarishni amalga oshirdi. Aytilganlarga ko'ra, shakl va mazmunning ijtimoiy bog'lanishida ikki xil bog'lanish farqlanadi:

- 1) ikkilamchi sun'iy bog'lanish;
- 2) birlamchi ijtimoiy-an'anaviy bog'lanish.

Matematik belgilar (simvollar) bilan ular ifodalagan mazmun, harflar bilan tovush va fonemalar, yo'l belgilari bilan ular anglatgan mazmun va h. k. orasidagi bog'lanish ikkilamchi sun'iy bog'lanishdir. Ammo [kitob] tovush shakli bilan muayyan mazmunning, [suv] fonemalar tizmasi bilan aniq bir mazmun va vazifaning bog'lanishi esa birlamchi ijtimoiy-an'anaviy bog'lanishdir. Chunki ushbu bog'lanish o'zbek jamiyatida shu holda qabul qilingan. Bunday bog'lanish jamiyatning har bir a'zosi uchun umumiy va majburiydir. Ayni vaqtda boshqa til jamiyatida ushbu mazmunni, masalan, [knigi], [voda], yana boshqasida [bux], [vasser], yana boshqa birida esa [livr], [o] va h. tovush shakllari bilan bog'lash qabul qilingan. Demak, bu bog'lanish o'sha til jamiyati a'zolari uchun tayyor, umumiy majburiydir.

Shakl va mazmun orasidagi ijtimoiy (sun'iy va an'anaviy) bog'lanish birligi fanda «ramz», «shiora», «shartli belgi» «signal», «semiotik belgi» atamalari bilan nomlanadi. Ramzlarni o'rganuvchi va mantiq, falsafa, kibernetika, matematika oralig'ida vujudga kelgan maxsus fan— *semiotika* fani mavjud. Bu fan namoyandalari tomonidan «Semiotika» oynomasi va ilmiy to'plamlar nashr qilinib kelinmoqda.

Shakl va mazmun o'rtasidagi assimetrik munosabat tilshunoslikning barcha sathlarida amal qiluvchi hodisadir. Shakl va mazmun yaxlitligini biz fonologik sathda ham, morfemik sathda ham, leksik sathda ham va boshqa barcha sathlarda ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Xususan, shakl va mazmun birligi leksik sathda ham asosiy o'rinni egallaydi. Leksema til birligi sifatida turlicha imkoniyatlar majmuasi bo'lsa, so'z uning voqelanishi, ro'yobga chiqishi, aniq shakl, mazmun va vazifa kashf etgan moddiy ko'rinishidir. Har bir leksema nutqda muayyan so'z sifatida namoyon bo'ladi. Leksema ikki tomonga ega bo'lgan til birligidir. Aniqrog'i, u shakl va mazmun tomonlaridan iborat ramzdir. Sistem tilshunoslikda leksemaning shakl tomoni nomema deyiladi. Nomema faqat leksemaning shakliga (moddiy qobig'i, tashqi tomoniga) nisbatan ishlatiladi. Leksemaning mazmun tomoni (ma'nosi, ichki tomoni...) esa semema nomi bilan yuritiladi. Demak, leksema = nomema + semema.

Nomema leksemaning tilga xos tomonidir. U ongimizda muayyan fonemalar tizmasi sifatida mavjud. Nomemaning fonemalar tizmasidan iboratligi ichki nutq jarayonida (kishi fikr yuritganda, ma'lum matnni ichida o'qiganda) aniq seziladi. Chunki odam ichki nutq jarayonida so'zlarni, qo'shimchalarni ketma-ket tizib, xuddi gapirayotgandek, aularni grammatik jihatdan shakllantiradi. Demak, inson faqat ovoz chiqarganda emas, balki ovozsiz ham fonemalarga moddiy shakl bera oladi. Tashqi muhitda nomema tovushlar (yoki harflar) tizmasi sifatida voqelashadi. Substansional tilshunoslik leksemalarning moddiy tomoniga – nomemalarga ko'p ahamiyat bermaydi. Chunki nomema leksemaning mohiyatiga ta'sir ko'rsatmaydi. Leksemaning mohiyati esa uning ichki tomoni – semema orqali va shunga ko'ra leksemaning boshqa til birliklariga munosabati, aloqaga kirishuvi orqali belgilanadi.

Nomemaning ahamiyati nazmiy nutqda behad katta bo'ladi (qofiya, radif, tajnis turlari, saj'....). Shu sababli she'riyatda nomemaga asosiy e'tibor qaratiladi. Lingvistika nuqtayi nazaridan esa asosiy e'tibor faqat sememaga qaratiladi. Semema leksemaning ichki tomoni, uning mazmuni, ma'nosi, nimani ifodalab kelishidir. Sememalar ko'pincha ongimizda muayyan bir tushuncha bilan bog'liq bo'ladi. Tushuncha – ong, mantiq birligi, semema esa leksemaga xos birlikdir. Masalan, [*o'rik*] leksemasining sememasi quyidagi tushunchalarda namoyon bo'ladi:

- 1) ho'l meva turi;
- 2) shu mevaning quritilgani;
- 3) shu mevani beradigan daraxt.

Sememaning tushunchalar bilan bog'liqligini faqat mustaqil leksemalardagina kuzatish mumkin. Yordamchi leksemalarda, olmoshlarda esa bunday bog'lanishni ko'rmaymiz. Tilshunoslikda sememani hosil qiluvchi ma'no bo'laklari sema deyiladi. Masalan: [*daraxt*] leksemasining semalari quyidagilar:

- 1) predmet; 2) o'simlik; 3) yerda o'suvchi; 4) tanali; 5) ildizli; 6) shoxli; 7) bargli.

Sistem tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri leksemalarni tizim sifatida tahlil qilishdir. Leksemalarni shu nuqtayi nazardan o‘zaro ichki munosabatlar asosida muayyan qatorlarga, guruhlariga, tur va turkumlarga birlashtirish zarur.

Sistem tilshunoslikasoschisi F.de Sossyur lingvistikani semiotikaning tarkibiy qismi, bo‘limi deb tushungan. Bunday qarash hozirda juda keng tarqalgan. Shunday qilib, til shakl va mazmunning ijtimoiy-an‘anaviy bog‘lanishidan iborat birlamchi ramzlar tizimidir. Bu ta‘rif tilga — til birliklarining qurilishiga, tabiatiga ko‘ra berilgan ta‘rifdir.

Sun‘iy ramzlar tizimida shakl va mazmun bog‘lanishi mutanosib (simmetrik)dir. Ya‘ni bitta shaklga bitta mazmun to‘g‘ri keladi. Bir mazmun faqat bir shakl bilan ifodalanadi. Bu ramziy tizimlarning qonunidir. Chunonchi, matematikada (+) alomati qo‘shish va faqat qo‘shishni, (:) alomati bo‘lishni, (1), 2) esa «bir» va «ikki» tushunchasini ifodalab keladi. Ular boshqa vazifada ishlatilmaydi. Tilda esa shakl va mazmun bog‘lanishi bu holda amalga oshmaydi. Aniqrog‘i, tilda shakl va mazmun nomutanosibligi (asimmetriyasi, asimmetrik dualizmi) mavjuddir. Bu nomutanosiblikning mohiyati shundan iboratki, bir shakl bir necha mazmun bilan (omonimiya, shakldoshlik: *ot*-loshad; *ot* — imya; *ot* — imya sushestvitelnoye; *ot* — strelyay) va, aksincha, bir mazmun bir necha shakl bilan (sinonimiya, ma‘nodoshlik: *yuz*, *aft*, *bet*, *bashara*, *chehra*, bog‘lanishi mumkin.

Tildagi shakl va mazmun nomutanosibligining sababi shundaki, til ramzlarining birliklarining) mohiyati oddiygina shakl va mazmun bog‘lanishi orqali balki til birliklarining o‘xshashlik (paradigmatik) va qo‘shnichilik (sintagmatik) munosabatlari orqali aniqlanadi. Masalan, [ot] shakldosh lug‘aviy birligini o‘xshashlik qatorlarida (paradigmada) ko‘rib chiqamiz:

a)[ot] hayvon nomi sifatida [*ot*, *ulov*, *eshak*, *xachir kabi*] bilan;

- b) «nom» ma'nosida [ot, ism, nom, atama va h.k.] bilan;
- v) tilshunoslik atamasi (termini) sifatida [ot, sifat, son, olmosh] bilan;
- g) fe'l-harakat ma'nosida [ot, o'q, uz, o't och h. k.] bilan o'xshashlik qatorlariga kiradi.

Natijada shakldoshlik mohiyatan yo'qoladi. Qo'shnichilik munosabatlari nuqtai nazaridan esa bu o'xshashlik tamoman yo'q bo'ladi. Chunki, masalan, [ot, ulov, eshak, xachir ...] qatori [min]; [o's]; [o'l] kabi lug'aviy birliklar bilan, [ot, nom, ism, atama va h. k.] qatori [qo'y], [bil-], [so'ra-] va h. k. lug'aviy birliklari bilan, harakat ma'nosidagi [ot] esa [-ni] tushum kelishigi, mayl, zamon, fe'l shakllari (sifatdosh, ravishdosh va b.) morfemalari bilan qo'shnichilik munosabatlariga kirishadi. Shunga ko'ra shakldoshlik (omonimiya) matnda til birliklarining qo'shnichilik munosabatlari yaqqol voqelashganda, namoyon bo'lganda batamom yo'qoladi.

Navbatdagi tahlilni ma'nodosh (sinonim) so'zlar misolida ham davom ettiramiz. Masalan, [yuz, aft, bet, bashara, turq, chehra, jamol va h.k.] lug'aviy qatoridagi so'zlar dastlab uch guruxga bo'linadi. Ya'ni oddiy (neytral) ma'noli [yuz], salbiy bo'yoqli [bet, bashara, turq] va ijobiy bo'yoqli [chehra, jamol] so'zlari. Oxirgi ikki guruh o'z ichiga belgining darajasiga ko'ra darajali ziddiyat hosil qiladi. Bu

holda ma'nodoshlik mohiyatan yo'qoladi. Mana shunga ko'ra til ramzlarida shakl va mazmun (ma'no) nomutanosibligi juda keng tarqalgan. Til birliklarining mohiyatini o'xshashlik va qo'shnichilik

munosabatlari orqali belgilash tilda shakl va mazmun nomutanosibligiga keng yo'l ochib beradi. Shakl va mazmun nomutanosibligining o'zi esa tilning rivojidagi eng asosiy ichki omil hisoblanadi. *Tilning o'z holicha rivojlanib, kunma-kun o'sib borayotgan jamiyat talabini qondira olishi*, jamiyat a'zolariga,

hech bir qiyinchilik tug'dirmay *rivojlanishi* shakl va mazmun nomutanosibligiga ko'ra yuz beradi. Biz kunda bu jarayonning guvohi bo'lamiz. quyidagi dalillarga murojaat qilaylik:

1. Oktabr to'ntarishidan keyin juda ko'p lug'aviy birliklarning shakli o'zgarmadi, ammo mazmuni o'zgardi: [arbob, rais, hakim, hakam va b.]40—80-yillarda ko'plab lug'aviy birliklarning ma'nolari saqlandi. Shakli esa, asosan, ruscha shakllar bilan almashtirildi: (sho'ro→sovet , inqilob→revolyusiya, jumhuriyat→respublika, viloyat-oblast, tuman→ rayon).

2. Bugungi kunda rus tilidan va u orqali G'arbiy Yevropa tillaridan kirgan minglab lug'aviy birliklarning hatto ilmiy-texnik atamalarning ma'no (mazmun)lari saqlanmoqda. Ammo shakli esa qisman o'zbekcha, ko'pincha arabcha va tojikcha so'zlar bilan almashtirilmoqda: (Vrach→hakim, televizor→oynai jahon, institut→oliygoh, fakultet→kulliyot, student→talaba kabi).

3. Biz har kuni yuz marta lug'aviy birliklarni ko'chma ma'noda qo'llaymiz. Qiyoslang: [*Singlim*, bu qanday bino? *Akajon*, biroz qarashib yuboring,] Bu gaplarda (*singlim*, *akajon*, *qarashib yuboring*) so'zlarida lug'aviy ma'no o'zgartirilgan, shakl esa saqlangan. Qo'shni tillarda, ayniqsa, ko'p tillilik sharoitida o'z lug'aviy birliklariga ma'nodosh (sinonim) so'zlar olish, tanlash, ulardan erkin foydalanish ham qayd etilgan nomutanosiblikka ko'ra yuz beradi. Ayniqsa, eski o'zbek tilining badiiy-nazmiy nutqida bu usuldan nihoyatda ko'p foydalanilgan. Shu sababli faqat bir «sevgili» tushunchasini ifodalash uchun eski o'zbek tilimizda 100 dan ortiq shakldosh so'z bor .

Bunday imkoniyatlarning barchasi tilning rivojlanishi uchun qulay omil bo'lib, tildagi shakl va mazmun nomutanosibligi bilan asoslanadi.

O'zbek tilida sodda gaplardagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik (asimetriya) muammosi o'rganilgan.. Ammo bu masala qo'shma gaplar doirasida alohida o'rganilgan emas. Rus tilida esa mazkur masala, qo'shma gap materialida chuqur tadqiq etilgan.

Aytish lozimki, sodda gaplar doirasidagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik, asosan, tildagi tejash tendensiyasining namoyon bo'lishi sifatida yuzaga kelsa, qo'shma gaplardagi bunday nomuvofiqlikning za-mini tildagi ortiqchalik tendensiyasiga borib taqaladi.

Bir denotativ voqea ifodalangan ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik hamisha mavjud bo'ladi va bu nomuvofiqlikning yuzaga kelishi tildagi ortiqchalik tendensiyasining amal qilishi natijasidir. Bu tendensiya nutqiy aloqadagi muayyan zaruriyat bilan bog'liq, albatta. Bunday zaruriyat sifatida so'zlovchining turli sub'ektiv maqsadi, voqeaning baholashi kabilarni ko'rsatish mumkin. So'zlovchi ayni maqsadi, bahosi va shu kabilarni alohida ta'kidlab ifodalash uchun predikativ tizimlarni tanlaydi, lekin bu tizimlar denotativ voqeani emas, mazkur maqsadga ko'ra modusni ifodalaydi. Buning natijasida nazariy jihatdan ikki denotativ voqea ifodachisi bo'lgan ikki (yoki undan ortiq) predikativ birlikdan iborat ergash gapli qo'shma gap faqat bir denotativ voqeani ifodalaydigan bo'lib qoladi, ya'ni faqat bir mazmuniy «yadro»ni o'z ichiga oladi. Bu, tayinki, mazmun va shakl jihatidan nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

T. A. Kolosova rus tilidagi *Delo v tom, chto dlya remonta... nujen... stanok* kabi gaplarda ifoda planining mazmun planiga mos emasligini aytib, yozadi: «Bunday qo'shma gaplar, ikki predikativ birlikning mavjud bo'lishiga qaramasdan, bir situatsiyani ifoda qiladi. Jumlaning mazmuni aslida ergash gap qismida mujassamlashgan, bosh gap qismi esa hamisha ol-din kelib, sezilarli darajada mazmunsizlashgan, u axborot berish vositasi emas, balki ergash gapdagi axborotnig o'ziga xos aktuallashtiruvchisidir». Tadqiqotchi ana shuni hisobga olib, bunday gaplarning ifoda planiga ko'ra qo'shma, mazmun planiga ko'ra esa sodda ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbek tilidagi ergash gapli qo'shma gaplarda asosiy «axborotni aktuallashtiruvchi» sifatida, ya'ni modus ifodachisi sifatida bosh gap ham, ergash gap ham, aytib o'tilganiday, kelaverishi mumkin. Qiyos: *Hamma gap shundaki, biz tezroq ishga kirishmog'imiz kerak. Kun tartibidagi keyingi masalaga kelsak, asosiy ma'uruzani kasaba*

uyushmasining raisi qiladi. Birinchi gapda modus bosh gap orqali, ikkinchi gapda esa modus ergash gap orqali ifodalangan. Lekin bari bir har ikki gapda ham mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik mavjud.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, modus ergash gapli qo'shma gaplarning ergash qismida ifodalanganda, ergash gapda predikat sifatida ko'pincha shart maylidagi fe'l (yuqoridagi misol), *-ganda* shakli fe'l (*Gapning to'g'risini aytganda, siz ko'p o'qishingiz kerak*) kabilar ishtirok etadi. Ergash gapda ifodalangan mazmunning tabiatiga ko'ra mazkur shakllar bilan bog'liq «shart» va «payt» ma'nolari neytrallashadi. Bu hol, albatta, tushunarli, chunki mazkur predikatlar denotativ voqea ifodasida ishtirok etmagan.

Shunisi ham tabiiyki, modus ifodalovchi tizim ixchamlashishga moyil bo'ladi. Buni yaxlit gapda denotativ voqeaga qaraganda modusning nomuhimligi bilan izohlash mumkin. Ana shu nomuhimlik, aslida, tegishli so'z shakllaridagi ma'nolarning («shart», «payt» kabi) kuchsizlanishiga yoki neytrallashishiga olib keladi. Bu neytrallashuv ko'pgina ergash gapli qo'shma gaplarda juda aniq bo'ladi. Yuqorida keltirilgan *Men senga aytsam, odamlarga yaxshilik qil, Keyingi masalaga kelsak, asosiy ma'ruzani kasaba uyushmasining raisi qiladi. Gapning ochigini aytganda, ishga jiddiy kirishmoq shart. Men o'ylaymanki, u bugun keladi* kabi ergash gapli qo'shma gaplarda ana shunday neytrallashuvni ko'rish mumkin. Bu neytrallashuvga va gapning tegishli qismlarida ifodalangan modusning mantiqiy-mazmuniy tabiatiga ko'ra bunday shaklan qo'shma gaplar haqli ravishda kirish tizimli sodda gaplar sifatida baholanadi.

A. G'ulomov kirish tizimlarning asosiy gapdagi fikrga bog'liq bo'lgan, shu haqdagi qo'shimcha mulohazalarni ifodalashini ta'kidlaydi. Uningcha, «bu mazmun ottenkalari juda xilma-xil: so'zlovchining aytilayotgan fikrga sub'ektiv munosabatini, shu fikrga bog'liq holda tug'ilgan emotsiyalarni, fikrning umumiy bahosini va shu kabi holatlarni bildiradi». Bu ma'nolar biz modus tavsifi bilan bog'liq holda aytgan ma'nolar bilan mos keladi. Demak, kirish gap, kirish so'z, kirish tizimlarning semantikasi bevosita modusdan iborat. Modus ifodalangan va predikatlaridagi tegishli shakllar ma'nosi aniq neytrallashgan aksar ergash gaplarni kirish gaplar sifatida baholash bunday shaklan qo'shma gaplardagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlikni bartaraf etadi. Chunki bunday xolatdagi ergash gapning gapligi inkor etilmagan holda u qo'shma gapning sintaktik tarkibidan tashqariga chiqariladi. Zero, «kirish konstruksiyalar so'zlovchining aytilayotgan fikrga munosabatini bildiradigan, lekin gap bo'laklari bilan sintaktik jihatdan bog'lanmagan elementlardir».

Yuqorida aytib o'tilganiday, modus ifodalovchi gaplar mohiyatan shakliy jihatdan ixchamlashishga moyil bo'ladi. Bu modus sifatidagi ma'noni nutqiy aloqa talabiga muvofiq ta'kidlash darajasining katta yoki kichikligi bilan bog'liq. Ana shu darajaga mutanosib ravishda modus ifodalangan gapni predikativ tizim, hatto bir so'zgacha ixchamlashtirish mumkin. Bu munosabat bilan A. G'ulomov shunda yozadi: «*Ma'lumki, bari bir, anglashiladiki* kabi kirish so'zlarning bir qismi aslida bir gap bo'lgan. Bu gap har jihatdan o'zgarib, kuchsizlanib, kirish so'zga aylangan. Masalan, *baribir* (bari bir: ega-kesim). Bularning ba'zilarida *-ki* bog'lovchisining qo'llanishi ham shuni ko'rsatadi: *Ma'lumki, paxta terimi sentyabr oyidan boshlanadi* (aslida: *ma'lumki* — bosh gap, qolgani ega ergash gap: *Paxta terimining sentyabr oyidan boshlanishi ma'lum narsa*). *O'ylaymanki, bugun kelar* (aslida *o'ylaymanki*. bosh gap, qolgani to'ldiruvchi ergash gap: *u bugun keladi, — deb o'ylayman*. Ko'chirma gap bilan muallif gapining munosabatidan bosh gap bilan to'ldiruvchi ergash gapning munosabati anglashilib turadi».

Agar nutqiy aloqada modusni gap shaklida ifodalab alohida ta'kidlashga zarurat bo'lmasa, modusni ifodalovchi gap ixchamlanib boraverishi mumkin. Shuning uchun xam A. G'ulomovning yuqorida keltirilgan fikri asoslidir. Yana qiyoslaylik: *Agar men sizga to'g'risini aytsam, siz bu erda turolmaysiz*. Bu gapda *-sa* ning ma'nosi neytrallashtirgan emas, u to'la «shart» ma'nosini ifoda etgan, ya'ni qo'shma gapning har ikki qismida ham denotativ voqea ifodalangan, modus alohida gap bilan ifodalangan emas. Yaxlit qo'shma gapning mazmuni ikki denotativ voqea o'rtasidagi shart munosabatidan iborat, ya'ni birinchi denotativ voqea (ergash gapda) ning amalga oshishi ikkinchi denotativ voqea (bosh gapda)ni keltirib chiqaradi. Gapning mazmuniy va shakliy jihatlari bir-biriga muvofiq keladi. Endi mana bu gapni olib ko'raylik: *Agar men sizga to'g'risini aytsam, siz bu yerlarni ko'rmagansiz*. Bu gapning ergash qismida modus ifodalangan va predikat ifodasidagi *-sa (aytsam)* ning «shart» ma'nosi neytrallashtirgan; bosh gapda esa (*siz bu yerlarni ko'rmagansiz*) denotativ voqea ifodalangan. Shu ma'noda ergash gap mazmunan kirish gapga yaqinlashadi, bog'lovchi vosita *-sa* ham mazmun, ham grammatik jihatdan kuchsizlangan. Modusni ifodalovchi gapning ixchamlashtirish olish xususiyatiga ko'ra mazkur gapda quyidagicha shakliy ko'chim (transformatsiya) ni amalga oshirish mumkin: *Agar men sizga to'g'risini aytsam siz bu yerlarni ko'rmagansiz - Men sizga to'g'risini aytsam, siz bu yerlarni ko'rmagansiz? Sizga to'g'risini aytsam, siz buyarlarni ko'rmagansiz. To'g'risini aytsam, siz bu yerlarni ko'rmagansiz. To'g'risi, siz bu yerlarni ko'rmagansiz. Ko'rinadiki, denotativ voqea ifodasi bo'lgan gap bilan qarshilantirilgan va mazmuni modusdan iborat bo'lgan. Agar men sizga to'g'risini aytsam gapi mazmunan to'g'risi shaklidagi kirish so'z bilan teng.*

Umuman, ergash gapli qo'shma gaplarning tarkibida alohida gap orqali ifodalangan modus mazmuni mavjud bo'lgan barcha turlari uchun mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik xosdir. Ayni chog'da bunday ergash gapli qo'shma gaplardagi modus ifodasining tabiatiga ko'ra ular hamisha kirish tizimli gaplarga aylanish imkoniyati mavjud. Bu mazmuniy-sintaktik jarayon, ya'ni ergash gapli qo'shma gaplarning kirish tizimli gaplarga shakliy ko'chishi benihoya murakkab va o'ziga xos jiddiy jarayon bo'lib, unda bir qator mantiqiy-lisoniy qonuniyatlar amal qiladi. Bunday qonuniyatlarni to'lig'icha ochib berish va tasvirlash alohida ish uchun mavzu bo'la oladi.

Shakl va mazmun aloqadorligi hamda ularning aloqdorligi masalasi tilshunoslikning markaziy muammolaridan bo'lib, ularni tadqiq qilishda bu ikki kategoriya dialektik birlikda olib qaralishi lozim, zero shakliy va mazmuniy tahlil bir-biri bilan dialektik ravishda bog'langan. Barcha nazariyalar ana shu ikki tomonni, ya'ni shakl va mazmun tomonni to'liq nazarda tutsagina, u haqiqiy nazariya bo'la oladi. Chunki til birliklarining shakliy va mazmuniy qurilishlari o'rtasidagi aloqa benihoya murakkab va ziddiyatli bo'lib, juda ko'p hollarda bu qurilishlar bir-birlari bilan aynan bir xil teng muvofiqlik bo'ladi va bu assimmetriyani hisobga olish shart.

Xulosa qilib aytish mumkinki, lingvistik belgining shakli va mazmuni o'rtasidagi assimmetrik munosabat tilning barcha sathlarida amal qiluvchi universal hodisadir. Shunday ekan, uning til sistemasining turli sathlarida amal qilishini monologik planda o'rganish lingvistika oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanaladi.